



FRAZEOLOGIK BIRLIKLARNING SOMATIK TIPINI O'RGANISH

Sog'inboyeva Shahzoda Baxtiyor qizi

Namangan davlat universiteti talabasi

Annotatsiya: Ushbu maqolada frazeologik birliklarning somatik tipi tahlil qilinib, ular orqali o'zbek xalqi madaniyatida olamni anglashda inson a'zolari bilan bog'liq lisoniy birliklar o'rganilgan. Bunda ma'no ko'chishi, kengayishi va torayishi kabi semantik jarayonlar madaniy qolip sifatida lingvokulturologik jihatdan qiymatga ega ekanligi ma'lum bo'ladi.

Kalit so'zlar: somatik frazeologizmlar, olamning lisoniy manzarasi, sema, semantik tahlil, metafora.

**AN ANALYSIS OF THE SOMATIK TYPE OF PHRASEOLOGICAL
UNITS**

Soginbayeva Shahzoda Bakhtiyor

Student of Namangan State University

Annotation: This article analyzes the somatic type of phraseological units, through which linguistic units related to names of human organs are organized in the culture of the Uzbek people in understanding the world. It turns out that semantic processes such as meaning transfer, widening and narrowing have linguoculturological value as a cultural pattern.

Keywords: somatic phraseologisms, linguistic landscape of the world, sema, semantic analysis, metaphor.

Til – xalq tafakkuri, dunyoqarashi va ma'naviy olamini aks ettiruvchi eng muhim ijtimoiy hodisadir. Har bir til o'z millatining tarixiy tajribasi, urf-odatlar, diniy e'tiqodlari va hayot tarzining lisoniy ifodasidir. Shu ma'noda, frazeologik birliklar tilning semantik boyligini, xalqning tafakkur jarayonini hamda uning dunyoni qanday idrok etishini yoritishda muhim manba hisoblanadi. Frazeologizmlar tildagi tayyor, barqaror birikmalar bo'lib, ular so'zning oddiy lug'aviy ma'nosidan tashqari, xalq tafakkurining obrazli shakllarini, milliy mentalitetni, tarixiy-madaniy qadriyatlarni o'zida mujassam etadi. Ayniqsa, inson tana a'zolari nomini o'z ichiga olgan somatik frazeologizmlar xalqning ichki kechinmalari, ruhiy holati, hissiy ifodalarini ifodalovchi vosita sifatida alohida o'ringa ega.

Somatik frazeologizmlar orqali inson atrof-muhitni, jamiyatni va o'z ichki olamini tana a'zolariga oid metaforalar yordamida ifodalaydi. Masalan, “ko'z”, “quloq”, “yurak”, “bosh”, “til” kabi leksemalar asosida shakllangan frazeologik birliklar insonning hissiy va aqliy dunyosini yorqin tasvirlaydi. Bunday birliklar nafaqat tilning leksik boyligini oshiradi, balki xalqning dunyoni anglash modelini, diniy-mifologik tasavvurlarini ham aks ettiradi.

Somatik frazeologizmlarni o'rganish tildagi obrazlilikning tabiati, metaforik tafakkur mexanizmlari va xalqning madaniy ongini aniqlashda muhim ilmiy asos bo'lib xizmat qiladi. Shu bois ushbu maqolada frazeologik birliklarning somatik tipi, ularning shakllanish tamoyillari, semantik xususiyatlari va madaniy asoslari haqida fikr yuritiladi. Inson olamni o'z ko'zi bilan ko'rar va his qilar ekan, bu jarayon "olamning lisoniy manzarasi" deb ataladi.

Olamning lisoniy manzarasi dunyoni anglashning bir vositasi hamda ko'rinishi bo'lib, borliqning faqat so'zlar bilan bog'liq tasavvurotni ifodalaydi. Shu jihatdan mazkur tushuncha insonning milliy mansubligi, hududi, ijtimoiy darajasi va hokazo omillar bilan chambarchas bog'liq. Uning amaliy natijasini tekshirishda tildagi paremiologik birliklar – barqaror birliklar tahlili muhim ahamiyatga ega.

Biz ushbu maqolada frazeologik birliklarning somatik tipini ko'rib chiqamiz. Zero, inson olamni metaforalar yordamida tavsiflashda o'z tana a'zolariga o'xshatishga asoslanadi.

Inson yoki hayvon tanasining bir qismi nomini o'z ichiga olgan frazeologik birliklar somatik frazeologizmlarni tashkil etadi. Insonlar, hayvonlar, o'simliklar, atrof-muhitda mavjud bo'lgan jismlar, shuningdek, jonsiz narsalarni o'z fazilatlarini bilan tasvirlashi odatiy holdir. Bundan tashqari, somatik lug'at diniy, mifologik, falsafiy va boshqa ekstralingvistik kontekstlar bilan bog'liq ko'plab barqaror birlashmalar bilan uyg'unlashadi.[5; 2–3-b.]

Somatik frazeologizmlarni o'rganish, ularning o'ziga xos jihatlarini tadqiq etish XX asrning ikkinchi yarmidan boshlandi. Tadqiqotlarda somatik frazeologizmlar F.Vakk, G.A.Bagautdinova, A.V.Dibo, S.G.Alekseyeva, R.M.Vayntraub, T.I.Yegorova, N.A.Sedova, T.Chete, L.I.Xarchenkogo, Y.A.Shashkov, Y.A.Dolgoplov, R.Yu.Mugu, Y.V.Nikolina, Y.F.Arsentyeva, P.M.Arkadyev, O.A.Kononova, N.J.Gumerova, J.X.Gergokova, Yu.A.Dolgoplov kabi olimlar tomonidan o'rganildi.[6; 75-b.]

O'zbek tilshunoslari ham tildagi frazeologik birliklarning shakllanish tamoyillari, ularning o'zbek nutqi funksional ko'rinishlarida yashash shart-sharoitlari, uslubiy imkoniyatlari, jumladan, badiiy-publisistik matnlardagi emosional-ekspressiv vazifalari borasida sezilarli tadqiqotlarni amalga oshirdilar. Bu kuzatishlar nafaqat bir til, balki bir necha tillarni qiyoslash asosida ham olib borildi. A.Isayev, O.Nazarov, Sh.Usmonova, Sh.Nazirova, H.Alimova, U.Rashidovalar tomonidan somatik frazeologizmlarni o'rganish yuzasidan olib borilgan tadqiqotlar o'zbek tilidagi frazeologik birliklarning tabiatini o'rganishda muhim manbalar hisoblanadi.

Tilimizda ko'z leksemasi ishtirok etgan somatik birliklar ko'p uchraydi. Xususan, ko'z komponentli frazemalar insonning cheksiz va turli-tuman his-hayajonini, fiziologik jarayonlarini ifodalashga xizmat qiladi. Bu frazeologik birliklarning barchasi shaxsning ma'lum bir ichki ruhiy holatini ifodalash uchun xizmat qiladi.[7; 12–13-b.] Eshitish hissiyotlarini ifodalovchi frazeologik birliklarning asosiy maqsadi

eshitish jarayonida amalga oshirilayotgan maqsad mazmunini belgilab beradi.[8; 12–13-b.]

Muqaddas manba “Qur’oni karim” da quyidagi oyat keltiriladi: “Alloh ularning qalblari va quloqlarini muhrlab qo’ygan va ko’zlarida parda bor...” (Baqara.7-oyat).

Ushbu oyatda quloqlari muhrlangan va ko’zlarida parda bor jumlasini orqali hech narsani ko’rmaydigan va eshitmaydigan kishilarga ishora qilingan. Ramziy ma’noda bunday odamlar haqiqatni bilib tursa-da, uni qabul qilmaydigan yoki bilmaslikka olgan odamga nisbatan qo’llanadi. O’zbek tilida ko’zi ko’r, qulog’i kar frazeologizmi “hech narsadan bexabar”, “hech narasani ko’rmaydigan, eshitmaydigan”[2; 129-b.] “boshqa hech kim, hech narsaga e’tibor bermaydigan, muayyan narsa haqida fikri ko’r-ko’rona qat’iy” degan ma’nolarni anglatadi. Ko’zini ko’r, qulog’ini kar qilmoq iborasi esa “hech narsani ko’rmaydigan, eshitmaydigan bo’lmoq yoki qilmoq” ma’nosini ifodalaydi. Shu asosda “g’aflatda qolmoq” semasi faol bo’lgan Ko’zini yog’ bosmoq iborasi ham ishlatilib, “takabburlanib, tanib-tanimaganga olib, hech narsani ko’rmaydigan” ma’nosida yuqoridagi iboralar bilan paradigma hosil qiladi.[2; 140-b.]

Somatik frazeologizmlar til tizimining muhim qatlamlaridan biri bo’lib, ular insonning dunyoni idrok etish va ifodalash jarayonida tana a’zolarini ma’naviy, ijtimoiy hamda hissiy tajribalar bilan uyg’unlashtirishga asoslanadi. Frazeologik birliklarning somatik tipi xalq tafakkuri, dunyoqarashi va madaniyatining eng qadimiy qatlamlarini aks ettiradi. Chunki inson o’z olamini tahlil qilishda, atrof-muhitni anglashda, ichki kechinmalarini ifodalashda eng yaqin va tanish narsa — o’z tanasidan, uning qismlaridan foydalanadi. Shu sababli, tildagi somatik frazeologizmlar nafaqat leksik birlik, balki xalqning dunyoqarashi, mentaliteti va ma’naviy qadriyatlarining in’ikosi sifatida namoyon bo’ladi.

O’zbek tili misolida ham “ko’z”, “quloq”, “yurak”, “og’iz”, “bosh” kabi tana a’zolari ishtirokidagi frazeologik birliklar xalq tafakkurining ramziy ifodalarini mujassam etadi. Bu birliklar insonning ruhiy holati, emotsional kechinmalari, axloqiy-axloqiy qadriyatlari va ijtimoiy munosabatlarini til orqali ifodalovchi vosita bo’lib xizmat qiladi. Xususan, ko’zini ko’r, qulog’ini kar qilmoq, ko’zini yog’ bosmoq, ko’zi ochilmoq kabi iboralar nafaqat jismoniy holatni, balki ma’naviy ko’rlik yoki anglash jarayonining darajasini ham ifodalaydi.

Somatik frazeologizmlarni o’rganish orqali xalqning diniy, mifologik, falsafiy va ijtimoiy tafakkuri haqida chuqur tasavvur hosil qilish mumkin. Chunki bunday iboralar nafaqat tildagi so’z birikmalari, balki xalqning tafakkur modeli, ramziy dunyoqarashi va hayotiy tajribasining lisoniy ifodasidir.

Shuningdek, Qur’oni karimdagi oyatlar va diniy manbalarda uchraydigan somatik obrazlar ham tildagi frazeologik tizimga kuchli ta’sir ko’rsatgan. “Ko’zlarida parda bor”, “quloqlari muhrlangan” kabi iboralar nafaqat diniy kontekstda, balki xalq og’zaki



ijodi va badiiy adabiyotda ham ramziy ma'no kasb etib, insonning ruhiy holatini, haqiqatni anglash yoki undan yuz o'g'irish holatini ifodalashda ishlatiladi.

Xulosa qilib aytganda, somatik frazeologik birliklarni o'rganish tildagi metaforik tafakkur mexanizmlarini, milliy dunyoqarashni hamda xalq madaniy xotirasini tahlil qilishda muhim ahamiyat kasb etadi. Bu yo'nalishdagi izlanishlar tilshunoslik, psixolingvistika, madaniyatshunoslik va tarjimashunoslik fanlari kesishgan nuqtada olib borilishi, frazeologizmlarning semantik va funksional xususiyatlarini yanada chuqurroq yoritish imkonini beradi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR:

- 1.Шайх Муҳаммад Содиқ Муҳаммад Юсуф. Тафсири ҳилол. – Тошкент: Шарқ, 2009.
- 2.Раҳматуллаев Ш. Ўзбек тилининг изоҳли фразеологик луғати. – Тошкент, 1978.
- 3.Mirzayev T. O'zbek xalq maqollari. – T.: Sharq, 2005.
- 4.Ўзбек тилининг изоҳли луғати. – Тошкент: ЎЗМЕ, 2006-2008. 5 жилдлик.
- 5.Yusupova M. Ingliz va rus tillaridagi somatik frazeologizmlarning semantik-grammatik tahlili: “Yurak” komponenti doirasida //“Экономика и социум” №2(81) 2021.
- 6.Рашидова У.Соматик фраземаларнинг тилшуносликда ўрганилиш тарихига доир // Хорижий филология. №4, 2016 йил. 75-б.
- 7.Рашидова У . Ўзбек тилидаги соматик ибораларнинг семантик-прагматик таҳлили(кўз, кўл ва юрак компонентли иборалар мисолида): Филол. фанл. фалс. докт. (PhD) ... дис. автореф. – Самарқанд, 2018.
- 8.Адашуллоева Г. Тожик ва ўзбек тилларида шахс хусусиятини ифодаловчи фразеологизмларнинг қиёсий-типологик таҳлили): Филол. фанл. фалс. докт. (PhD) ... дис. автореф. – Самарқанд, 2018.
- 9.Kuziev U. Y. The issue of classification and description of complex structural compounds in Uzbek language //Int J Eval & Res Educ. – 2023. – Т. 99. – №. 4. – P.309-314p.
- 10.https://www.iupr.ru/ files/ugd/b06fdc_464b3b1c44214d92a2ce23ae0147199e.pdf?index=true
- 11.<https://cyberleninka.ru>.
- 12.<https://uz.vogueindustry.com>.
- 13.<https://islom.uz/>.